



**Xodjayev Sobir Djumayevich,**  
“Oila va xotin-qizlar” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i  
sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
katta ilmiy xodim  
e-mail: [khsobir@yahoo.com](mailto:khsobir@yahoo.com)

## KEKSALIK SOTSILOGIYASINING DOLZARB MASALALARI

**Annotatsiya.** Maqolada aholi tarkibida keksa toifadagi aholi sonining ko‘payishi, insonlarning keksa yosh toifasiga o‘tishi bilan bog‘liq muammolar sotsiologiya va gerontologiya fanlari nuqtayi nazaridan nazariy tahlil qilingan. Unda, shuningdek, keksalik va qarilik tushunchalari hamda ularga qo‘yilgan mezonlar masalasi turli yondashuvlar asosida batafsil yoritilgan.

**Аннотация.** В статье теоретически анализируются актуальные проблемы, связанные с увеличением численности пожилых людей в составе населения, переходом людей в старшую возрастную группу с точки зрения социологии и геронтологии. Также подробно рассматриваются понятия старости и пожилых на основе разных подходов.

**Annotation.** In the article, the problems related to the increase in the number of elderly people in the population, the transition of people to the old age group are theoretically analyzed from the point of view of sociology and gerontology. It also elaborates on the concepts of elderly and old age as well as the criteria set for them based on different approaches.

**Tayanch so‘zlar:** keksalik, qarilik, xronologik yosh, sotsiogerontologiya, keksalik sotsiologiyasi, ijtimoiy izolyatsiya, xronologik qarish, fiziologik qarish.

**Ключевые слова:** старение, старение, хронологический возраст, социogerontология, социология старения, социальная изоляция, старение, хронологическое старение, физиологическое старение,

**Keywords:** aging, chronological age, sociogerontology, sociology of aging, social isolation, aging, chronological aging, physiological aging.

**Kirish.** Hozirgi kunda oʻrtacha umr koʻrish davomiyligining oshishi va aksariyat rivojlangan davlatlarda tugʻilishning pasayishi tufayli butun dunyoda aholining qarishi, yaʼni aholi tarkibida keksa kishilar ulushining koʻpayish jarayoni kuzatilmoqda<sup>1</sup>. Rivojlangan mamlakatlarda aholining qarishi butun XX asr davomida roʻy berdi, rivojlanayotgan davlatlar esa soʻnggi oʻn yilliklarda bu jarayonga qoʻshila boshladi. Eʼtiborlisi bu mamlakatlarning aholisi ham tez surʼatlarda qariy boshladi, BMT mutaxassislarining fikricha, 2015–2050-yillarda bu jarayon yana ham oshib boradi<sup>2</sup>.

**Maqsad va uni asoslash.** 1953-yilda Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan ishlab chiqilgan tasnifga koʻra, keksalar toifasiga 60 yoshdan oshgan; 60–74 yosh – keksalik yoshi; 75–89 yosh – qarilik yoshi; 90 yosh va undan katta – yuz yilliklar yoshidagi aholi kiritiladi. Rivojlangan mamlakatlarda oʻrtacha pensiya yoshi 65 yosh deb belgilangan. Keksalik va qarilikni oʻrganadigan fanlar tadqiqot amaliyotida keksalik yoshini ikki davrga: “uchinchi yosh” (60–65 yosh) va “toʻrtinchi yosh” (75–80 yosh) boʻlish qabul qilingan. Birinchi davr yaxshi salomatlik, yuqori turmush tarzi va shaxsiy rivojlanish hamda oʻz-oʻzini namoyon qilishning turli imkoniyatlar davri sifatida, ikkinchisi esa deyarli har bir inson duch keladigan jismoniy va hissiy qiyinchiliklar davri sifatida namoyon boʻladi<sup>3</sup>.

**Ilmiy muammoning tavsifi va yechimi.** Qarish koʻp qirrali hodisadir. Unda ekzistensial, ijtimoiy, psixologik, biologik va boshqa jihatlarni ajratib koʻrsatish mumkin. Hozirgi vaqtda qarilik va qarish haqidagi fanlararo bilim sohasi gerontologiya hisoblanadi. Ijtimoiy gerontologiya gerontologiyaning bir tarmogʻi sifatida, birinchi navbatda, koʻrib chiqilayotgan hodisaning ijtimoiy tomonlariga qaratilgan; shu bilan birga, u qarishning biologiyasi va psixologiyasi bilan bogʻliq.

Oʻz navbatida, qarish sotsiologiyasi bu hodisani sotsiologiya doirasida koʻrib chiqadigan sotsiologiyaning bir tarmogʻi boʻlib hisoblanadi. Shu tufayli u keksa kishilarning ijtimoiy rollari, qadriyatlari va ularga nisbatan boʻladigan munosabatlardagi ijtimoiy meʼyorlar, ularning referent guruhlar, ijtimoiy mavqelari (oila ichidagi va tashqarisida), turmush

***Qarish koʻp qirrali hodisadir. Unda ekzistensial, ijtimoiy, psixologik, biologik va boshqa jihatlarni ajratib koʻrsatish mumkin. Hozirgi vaqtda qarilik va qarish haqidagi fanlararo bilim sohasi gerontologiya hisoblanadi.***

<sup>1</sup> “Aholining qarishi” («vieillessement de la population») atamasini birinchi boʻlib fransuz demografi A.Sovi (Sauvy A) kiritgan. Qarang: Sauvy A. La population française jusqu’en 1956: Essai de prévision démographique // J. de la Société de Paris. – P., 1928. – N 12. pp. 321–327.

<sup>2</sup> Batafsil qarang: Щербакова Е.М. Старение населения в ближайшие десятилетия ускорится // Демоскоп Weekly. – Москва, 2014. – № 601–602.

<sup>3</sup> Maltes P.B. Baltes M.M. Savoir vivre in old age // National forum. – Baton Rouge (LA), 1998. – Vol. 78, N 2. pp. 13–18.

***Birinchi  
xronologik  
sotsiogerontologik  
nazariya –  
ijtimoiy faoliyat  
nazariyasi bo‘lib, u  
keksalik va qarilik  
bilan bog‘liq  
o‘zgarishlarga eng  
yaxshi moslashish  
uchun o‘rta  
yoshdagi unga  
xos xususiyat,  
yo‘qotayotgan  
rollarini yangilari  
bilan, ya‘ni ishchi  
roli o‘rniga  
hamkasb, volontyor  
va boshqa rollarga  
almashtirish  
tarzida o‘rta  
yoshga xos bo‘lgan  
shaxsning ijtimoiy  
faollik darajasini  
saqlab turishi  
maqsadga muvofiq  
deb hisoblaydi.***

tarzi o‘zgarishi bilan bog‘liq boshqa masalalar bilan shug‘ullanadi. Jamiyatda qarish hodisasini talqiq etishda T.Parsonsning strukturaviy funksionalizmi, R.Darendorfning sotsial konflikt nazariyasi, Dj.Xomans, P.Blauning ayirboshlash nazariyasi, ramziy interaksionizm (Dj.G.Mid, I.Gofman), P.Berger va T.Lukmanning ijtimoiy konstruktivizmi va bir qator nazariyalarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

Shu bilan birga, qarish sotsiologiyasi gerontologiya va birinchi navbatda, ijtimoiy gerontologiya ta‘sirini o‘zida namoyon etadi. Keksalik va qarish muammolari bilan shug‘ullanadigan sotsiologlar sifatida qarilikning ijtimoiy-gerontologik nazariyalarini tushuntirish asosi sifatida qabul qilishadi, ularning ko‘pchiligi, o‘z navbatida, sotsiologik va ijtimoiy-psixologik ildizlarga ega.

Bu, birinchi navbatda, birinchi xronologik sotsiogerontologik nazariya – ijtimoiy faoliyat nazariyasi bo‘lib, u keksalik va qarilik bilan bog‘liq o‘zgarishlarga eng yaxshi moslashish uchun o‘rta yoshdagi unga xos xususiyat, yo‘qotayotgan rollarini yangilari bilan, ya‘ni ishchi roli o‘rniga hamkasb, volontyor va boshqa rollarga almashtirish tarzida o‘rta yoshga xos bo‘lgan shaxsning ijtimoiy faollik darajasini saqlab turishi maqsadga muvofiq deb hisoblaydi<sup>4</sup>. Ijtimoiy faoliyat nazariyasiga javoban ijtimoiy begonalashuv nazariyasiga ko‘ra, qarish jarayoni hech qanday ijtimoiy faollikni saqlashni emas, balki shaxsni jamiyatdan asta-sekin chiqib ketishini nazarda tutishini ilgari suradi<sup>5</sup>.

Yuqorida sanab o‘tilgan sotsiogerontologik nazariyalar keksalik sotsiologiyasidagi asosiy ta‘limotlar hisoblanadi. Shu bilan birga, gerontologiya sohasida muvaffaqiyatli qarish ta‘limotlari ishlab chiqilmoqda<sup>6</sup>, nazariy nuqtayi nazardan ular hozirgi vaqtda keksa odamlarning hayot sifatini yaxshilash bo‘yicha g‘oyalarning butun majmuasini ifodalaydi va shuning uchun keksalikning ijtimoiy jihatlari to‘g‘risida bilimlarni amaliy qo‘llash borasida muhim ahamiyatga ega. Keksalik sotsiologiyasi doirasida bevosita ishlab chiqilgan nazariyalardan biri sifatida ijtimoiy stratifikatsiya va aholi tarkibida keksalar guruhining o‘rniga bag‘ishlangan M.Rayli va uning hamkasblari tomonidan ishlab chiqilgan nazariyani<sup>7</sup> ko‘rsatish mumkin.

<sup>4</sup> Personal adjustment in old age / Cavan R.S., Burgess E.W., Havighurst R.J., Goldhamer H. – Chicago (IL): Science research associates, 1949.

<sup>5</sup> Cumming E., Henry W.E. Growing old: The process of disengagement. – N.Y. Basic books, 1961.

<sup>6</sup> Rowe J.W., Kahn R.L. Successful aging // The Gerontologist. – Oxford, 1997. – Vol. 37, N 4. pp. 433–440; Lander McCarthy V., Bockweg A. The role of transcendence in a holistic view of successful aging // J. of holistic nursing. – Los Angeles (CA), 2013. – Vol. 31, N 2. pp. 84–92.

<sup>7</sup> Russell M. Aging and cohort succession. Interpretation and misinterpretation//Public opinion quart. Oxford, 1973. – Vol. 37, №1. pp. 35-50.

1975-yilda Xalqaro sotsiologiya assotsiatsiyasi doirasida bir yil oldin tuzilgan keksa yosh sotsiologiyasi (sociology of old age) bo'yicha ishchi guruhi tadqiqot qo'mitasiga aylantirildi (birinchi prezidenti – G. Orbax, AQSh); hozirgi kunda bu qo'mita “Keksalik sotsiologiyasi (sociology of aging) bo'yicha tadqiqot qo'mitasi” deb nomlandi. Qo'mita 1978-yilda Uppsala shahrida bo'lib o'tgan IX Butunjahon sotsiologiya kongressida o'z ishini rasman boshladi. Qarish va ijtimoiy siyosat; qarish va ijtimoiy rivojlanish yo'llari; pensiyaga chiqish va pensiya siyosati; oila, oilaviy aloqalar va avlodlararo munosabatlar; keksalikning qiyosiy sotsiologiyasi; sog'liqni saqlash, parvarishlash, ijtimoiy-tibbiy xizmatlar va rejalashtirish bo'yicha mavzularda seminar va oltita sessiya o'tkazildi<sup>8</sup>.

1979-yilda Amerika sotsiologik assotsiatsiyasida qarish masalasi bo'yicha alohida bo'lim tashkil topdi; 1997-yildan boshlab esa bu bo'lim Qarish va hayot davri bo'limi (Section on aging and the life course) deb nomlandi. Tashkilot veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bo'limning maqsadi, bir tomondan, ijtimoiy jarayon sifatida butun hayot davrida sodir bo'ladigan keksalik, ikkinchi tomondan, jamiyat bilan turli yosh guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdir. Shu bilan birga, bo'lim ham nazariy muammolar, ham ijtimoiy siyosat va kasbiy amaliyotning dolzarb masalalari bilan shug'ullanadi<sup>9</sup>. Keksalik sotsiologiyasi bo'yicha maqolalar ham sotsiologiya, ham sotsiogerontologik jurnallarda chop etiladi. Bu jurnallar orasida “Ageing and society” (“Keksalik va jamiyat”) (Kembridj universiteti nashriyoti), “The Gerontologist” (“Gerontolog”), “Journal of gerontology: Social sciences” (“Gerontologiya jurnali: Ijtimoiy fanlar”) (Oksford universiteti nashriyoti), “Research on ageing” (“Qarilik bo'yicha tadqiqot”) («SAGE» nashriyoti), “Journal of aging studies” (“Keksalik tadqiqotlari jurnali”) (“Elsevier” nashriyoti) ko'proq nufuzga ega.

Qarish muammolari bo'yicha sotsiologlarni quyidagi mavzular ko'proq qiziqtiradi:

- **qarish va jismoniy tanazzulga qarshi kurashish** (qarishga qarshi tibbiyot va kosmetologiya; kognitiv qobiliyatlar va ijtimoiy aloqalarni saqlab qolish maqsadida doimiy ta'lim va boshqalar);
- **keksa yoshdagi salomatlik; surunkali kasalliklar bilan yashash; mustaqil yashash va qariyalar uyidagi parvarish/hayot;**

<sup>8</sup> Qarang: Xalqaro sotsiologiya assotsiatsiyasining Qarish sotsiologiyasi qo'mitasi tarixi haqida ko'proq ma'lumot olish uchun rasmiy veb-sayt: Research committee on sociology of aging RC11. – Mode of access: <http://www.isa-sociology.org/rcs/rc11-history.htm>

<sup>9</sup> American sociological association: Section on aging and the life course. – Mode of access: <http://www.asanet.org/sections/aging.cfm>

**1979-yilda Amerika sotsiologik assotsiatsiyasida qarish masalasi bo'yicha alohida bo'lim tashkil topdi; 1997-yildan boshlab esa bu bo'lim Qarish va hayot davri bo'limi (Section on aging and the life course) deb nomlandi. Tashkilot veb-saytida e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bo'limning maqsadi, bir tomondan, ijtimoiy jarayon sifatida butun hayot davrida sodir bo'ladigan keksalik, ikkinchi tomondan, jamiyat bilan turli yosh guruhlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishdir.**

***Olimlar tez-tez “qarilik”, “keksalik”, “mo‘ysafid” singari tushunchalarga ta’rif berishadi. Lekin hech kim ta’rifni to‘laligicha ochib bera olmagan. Gerontologik adabiyotlarda taklif etilgan ta’riflarning turli-tumanligi bu sohadagi faoliyat olib boradigan olimlar soni bilan deyarli teng. Bu esa oldindan murakkab bo‘lgan holatni yanada murakkablashtiradi.***

g‘amxo‘rlik qiluvchining o‘rni (shu jumladan, “hissiy charchash” fenomeni singari jihatlar);

- yangi texnologiyalarning ahamiyati (qariyalarga xizmat ko‘rsatish va ularga g‘amxo‘rlik qiladigan kishilar uchun masofaviy monitoring va “aqlli uy” imkoniyatlari; keksa yoshda kompyuterlarda internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish);

- keksalikda kuzatiladigan farqlar, ya’ni turli etnik kelib chiqishi, erkak va ayol jinslari va boshqalarda qarilikda kuzatiladigan farqlar (ularning ayrimlari bir qancha asoslarga ko‘ra noqulay ahvolda bo‘lishadi); gender farqlari (keksalikning “feminizatsiyasi”, parvarish va oilaviy aloqalarni saqlaydigan ayollar); tengsizlikning turli shakllari (bir umr davomida to‘planadigan ustunlik va kamchiliklar; keksa yoshdagi qashshoqlik).

Inson qachon qariydi? Qachon odam keksalar toifasiga kiradi?

Olimlar tez-tez “qarilik”, “keksalik”, “mo‘ysafid” singari tushunchalarga ta’rif berishadi. Lekin hech kim ta’rifni to‘laligicha ochib bera olmagan. Gerontologik adabiyotlarda taklif etilgan ta’riflarning turli-tumanligi bu sohadagi faoliyat olib boradigan olimlar soni bilan deyarli teng. Bu esa oldindan murakkab bo‘lgan holatni yanada murakkablashtiradi. “Kattalar keksalikni noaniq vaqtgacha kechiktirish mumkin, deb aldashadi va yoshlar uchun bu ularning gorizonlarida umuman mavjud emas”<sup>10</sup>. Oddiy qilib aytganda, “qarilik” keksalik holatini anglatadi va uni to‘laqonli aniqlash mumkin emas. Biror kishining qari yoki qari emasligi kuzatuvchining idrok etishiga bog‘liq. Insonni “qari”, “keksa” yoki “nuroniy” deb atash mumkin bo‘lgan aniq yosh chegarasi yo‘q. Shuningdek, insonni keksalar deb tasniflaydigan biologik jihatdan aniqlangan yosh chegarasi mavjud emas.

“Qarilik” yoki “keksalik” tushunchasi nisbiy xarakterga ega bo‘lib, u bir jamiyatdan ikkinchi bir jamiyatga qarab o‘zgarib boradi. Qadimiy Xitoy mutafakkirlari inson hayotini 7 davrga ajratishgan, Aflotun esa inson hayotini fasllarga qiyoslagan. Ikkita holatda ham keksa kishining yoshi 60 yoshdan katta deb belgilangan. Ayrim jamiyatlarda 40 yoki 50 yosh keksalikka o‘tish yoshi deb hisoblanadi. “Tailand jamiyatida qarilik 60 yoshdan boshlanadi. Bu yoshga yetgandan so‘ng keksa odam bilan qarindoshlik aloqasi bo‘lmasa ham, qarindoshlik atamalariga teng bo‘lgan bobo yoki buviga o‘xshash hurmat-ehtirom bilan yosh shaxslar murojaat qilishadi”<sup>11</sup>.

Guha Roy (1991) ta’kidlaydi: “Keksalikni belgilash odatda uni ma’lum talqinda qo‘llanishiga bog‘liq. Ammo keksalikka o‘tishni

<sup>10</sup> Kirti K. Kalinga, Renuka Kumar. Sociology of ageing. 2008. – P 8.

<sup>11</sup> Vankayalapati Venkateswarlu. Problems of Rural Aged: A Sociological Perspective. Gyan Publishing House, 2008. 263 p. P 37.

pensiyaga chiqish bilan belgilash usuli haq to'lanmaydigan faoliyat bilan shug'ullanadigan ko'p miqdordagi ayollarni ko'zda tutmaydi va shu bilan birga, pensiyaga chiqish yoshi nafaqat davlatlar orasida, shu bilan birga, bir mamlakat ichidagi davlat va xususiy sektor o'rtasida ham farqlanadi"<sup>12</sup>.

Keksalik yoshi to'g'risida davlatlar o'rtasidagi farqlanish sabablarini o'sha jamiyatlardagi turli ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy vaziyat va sharoitlar bilan izohlash mumkin. Har bir jamiyat inson hayotini xalqning madaniyatidan kelib chiqib, ma'lum bosqichlarga bo'ladi. U bu bosqichlarga asosiy e'tiborni qaratadi va individlarning hayot yo'lini bosib o'tish jarayonida bir bosqichdan boshqasiga o'tish shartlarini, ya'ni ijtimoiy hayot bosqichlarini belgilab beradi. Keksalik oxirgi bosqich bo'lgani uchun uni doimiy ravishda qayta muhokama qilinadigan ijtimoiy tuzilma sifatida tushunish lozim.

Aksariyat davlatlarda keksa kishilarga berilgan ta'riflar ularning mehnat bozoridagi mavqeyi bilan chambarchas bog'liq, shunga ko'ra, nafaqaga chiqqan shaxslar keksalar hisoblanadi. Keksalarning davlat tomonidan rasmiy tan olinishi, kishi ijtimoiy mehnat taqsimotidan ozod bo'lishini rasman belgilanishi, ya'ni pensiya yoshidagi kishilarga tegishli bo'ladi.

Keksalikning o'zi hayotning o'ziga xos shakli sifatida xronologik jihatdan uchta hayotiy bosqichning: tayyorlanish, keyin esa iqtisodiy faoliyat bosqichlardan keyingi pensiyaga chiqish bilan belgilanadigan bosqichi sifatida talqin etiladi. Keksalikni belgilash uchta mezonga asoslanadi:

- a) ishdan bo'shash va pensiya olish;
- b) keksa bo'lib ko'rinish;
- c) kundalik hayot faoliyatida ma'lum cheklovlarga ega bo'lish.

Shaxsni yoki guruhni "keksa" yoki "qari" deb tasniflashning xronologik mezoni odatda ma'muriy maqsadlarda, xususan, vositalar – pensiya, sug'urta va boshqalarni belgilashda qo'llanadi. Ma'muriy maqsadlarda har bir mamlakat o'z manfaatlariga mos ravishda insonning ishlash muddati uchun yosh chegarasini belgilashga intiladi. Ammo "keksa yosh" so'z birikmasi ijtimoiy nuqtayi nazaridan mehnatga haq to'lanadigan ishdan pensiyaga o'tish sifatida baholanadi. Masalan, 2022-yilda Daniya, Gretsiya, Islandiya, Norvegiya davlatlarida pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 67 yosh, Niderlandiya va Portugaliyada 66 yosh 7 oy, Buyuk Britaniyada 66 yosh, Belgiya, Bosniya va Gersogovina, Kipr, Lyuksemburg va Meksikada 65 yosh, Armanistonda 63 yosh deb

***Aksariyat davlatlarda keksa kishilarga berilgan ta'riflar ularning mehnat bozoridagi mavqeyi bilan chambarchas bog'liq, shunga ko'ra, nafaqaga chiqqan shaxslar keksalar hisoblanadi.***

<sup>12</sup> Guha Roy. Demographic Trends in China and India. China report. 30: 1 (1994).  
<https://doi.org/10.1177/000944559403000101>

***Keksalik odatda xronologik yosh bilan emas, balki kishining jismoniy va ruhiy holatlari bilan belgilanadi. Darhaqiqat, yoshni aniq hisobga olish fikri nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Masalan, Hindistonning qishloq joylarida odamlar mutlaq biologik yoki xronologik mezon bo'yicha "qari" deb tasniflanmaydi, chunki ko'pchilik ularning necha yoshda ekanligini bilishmaydi.***

belgilangan<sup>13</sup>. O'zbekistonda pensiya yoshi erkaklar uchun 60 yosh (ish staji 25 yil bo'lganda), ayollar uchun 55 yoshni (ish staji 20 yil bo'lganda) tashkil etadi<sup>14</sup>. Lekin bu holat haq to'lanadigan ish yoki ishlamaydigan, shu bilan birga, rasmiy yoshda pensiyaga chiqmaydigan ko'plab erkak va ayollarga tegishli emas. Shuningdek, bu nodavlat sektorida band bo'lgan kishilarga ham taalluqli emas. Hatto turli davlatlarda rasman pensiyaga chiqish yoshi farqlanadi.

“Keksa” yoki “qari” so'zi odatda yoshlar bilan solishtirganda qo'llanadi. Barcha hamjamiyatlar uchun yagona chegarani bildiradigan chiziqni belgilash juda mushkul. Kishi yoki kishilar guruhini yosh yoki ishga yaroqliligiga qarab keksalar toifasiga kiritish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, yashash sharoitlari, ovqatlanish, tibbiy xizmat ko'rsatish, madaniy omillar va ishning mazmuni bilan belgilanadi.

Aholining aksariyat qismi savodsiz bo'lgan davlatlarda vaqt bilan o'chanadigan mutlaq yoshni ifodalaydigan birorta tushuncha yo'q. Hatto ibtidoiy jamoa tuzum davrida kishilar o'zlarining yoshlari nechchida ekanligini bilishmagan.

Keksalik odatda xronologik yosh bilan emas, balki kishining jismoniy va ruhiy holatlari bilan belgilanadi. Darhaqiqat, yoshni aniq hisobga olish fikri nisbatan yaqinda paydo bo'lgan. Masalan, Hindistonning qishloq joylarida odamlar mutlaq biologik yoki xronologik mezon bo'yicha “qari” deb tasniflanmaydi, chunki ko'pchilik ularning necha yoshda ekanligini bilishmaydi. Biroq umuman olib qaraganda, ular o'zlarining zamondoshlariga to'g'ri keladigan nisbiy yosh va toifa hamda faoliyatlarini, shuningdek, hayoti davomida hayot bosqichlari bilan qanday rivojlanishga erishganini bilishadi. Hindistonda rasman kishilar nafaqaga chiqqanda keksalik yoshi 55 deb belgilangan edi. Keyinchalik bu yosh 58 yoshga va so'ngra 60 yoshga ko'tarildi.

Yosh guruhidagi noaniqlik. Keksa kishilar uyushgan guruh hisoblanmaydi. Ular o'zining tarixi, butun hayoti davomida turli turmush darajasi va turli qadriyatlarga ega bo'lgan bir nechta avlodlardan tashkil topishadi. Taraqqiy etgan davlatlarda keksa kishilar uch yoki undan ko'proq bo'lgan toifalarga, aniqrog'i, quyidagi toifalarga bo'linadi<sup>15</sup>:

“Yosh-keksa” toifasiga pensiyaga chiqqandan keyin o'zining ishlash layoqatini saqlab qolgan 60–69 yosh oralig'idagi kishilar kiradi.

“O'rtacha keksa” – 70 bilan 75 yosh oralig'idagi kishilardan tashkil topadi.

<sup>13</sup> [https://ru.wikipedia.org/wiki/Пенсионный\\_возраст\\_по\\_странам](https://ru.wikipedia.org/wiki/Пенсионный_возраст_по_странам).

<sup>14</sup> <https://lex.uz/acts/112314>. Ўзбекистон Республикаси “Фукароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисидаги” Қонуни.

<sup>15</sup> Kirti K. Kalinga, Renuka Kumar. Sociology of ageing. 2008. P 11

“Keksa-keksa yosh” – 75 yoshdan oshgan, keksalik bilan bog‘liq bo‘lgan jismoniy kuchsizlik asoratini boshidan kechirayotgan va ruhiy kasallikka chalinish ehtimoli bo‘lgan kishilarni qamrab oladi.

“Eng qari” toifasi esa 80 yosh va undan katta bo‘lgan kishilarni o‘zi ichiga oladi.

Xronologik yoshni mo‘ljal sifatida qo‘llashning kamchiligi shundaki, bunda oldindan belgilangan yoshda barcha odamlar duch keladigan yosh bilan bog‘liq bo‘ladi. Masalan, 55 yoshdagi kishi keksalik tufayli sog‘ligidagi muammolar tufayli ishlay olmasligi mumkin, shu bilan 75 yoshli keksa kishi esa barcha faoliyat bilan shug‘ullanishga layoqatli bo‘ladi.

Kim keksa ekanligini aniqlash uchun xronologik yoshga emas, balki funksional qobiliyatga e‘tibor qaratish muhim. Bunda kamida ikkita omil ahamiyatga ega. Birinchisi – keksalar nogironlik eng ko‘p uchraydigan yosh guruhini tashkil qiladi. Ikkinchisi – keksalik ko‘pincha harakatchanlik va mustaqillikni saqlab qolishga to‘sqinlik qiladigan jismoniy va aqliy qobiliyatlarning bosqichma-bosqich yo‘qolishi sifatida qaraladi.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (1967) keksa yoshni “Aqliy va jismoniy funksiyalarning buzilishi hayotning oldingi davrlari bilan solishtirganda tobora ko‘proq namoyon bo‘ladigan hayot davri” deb ta’riflaydi. Bu insonning keyingi hayotida kimlargadir qaramlikka olib keladigan kasalliklar va nogironlik majmuyi hisoblanadi. Keksada odamlarda yuzaga keladigan buzilishlarning aksariyati kasallikning patogenligi va tarqalishini kamaytiradigan qarish jarayoni bilan bog‘liq emas. Ikkinchidan, “keksa kishilar aynan nogironlar duch keladigan stigma, noto‘g‘ri mulohaza va stereotiplarga duch kelishadi”<sup>16</sup>(Benedict and Gankos, 1981).

Keksayish va qarilik bir xil tushunchalar emas, ularni sabab va oqibat sifatida qat’iy ajratish lozim bo‘ladi. Keksalik – uzoq muddat davom etadigan jarayonning natijasi o‘laroq organizmning tabiiy ravishda yosh jihatdan rivojlanishining yuzaga keladigan yakuniy davri. Qarilikning asosiy belgilari bu organizmning fiziologik tizimlari faoliyatidagi qaytarilmas buzilishlar bo‘lib, ular kundalik atrof-muhit sharoitlariga nisbatan moslashuvchan-to‘ldiruvchi qobiliyatlarning pasayishi bilan namoyon bo‘ladi.

I.V.Davidovski shunday deb yozgan edi: “Keksalik nafaqat yashab o‘tiladi, shu bilan birga, tashqi muhit bilan o‘zaro ta’sir qilish jarayonida orttiriladi; bu nafaqat muhitning ko‘p yillik ta’siri, balki qarish

***Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (1967) keksa yoshni “Aqliy va jismoniy funksiyalarning buzilishi hayotning oldingi davrlari bilan solishtirganda tobora ko‘proq namoyon bo‘ladigan hayot davri” deb ta’riflaydi. Bu insonning keyingi hayotida kimlargadir qaramlikka olib keladigan kasalliklar va nogironlik majmuyi hisoblanadi.***

<sup>16</sup> Kirti K. Kalinga., Renuka Kumar. Sociology of ageing. 2008. P 12

***Keksalik, gerontologik guruh vakillarining turmush tarzi va darajasi, avlodlararo o'zaro munosabatlar sotsiologiyaning yangi muhim kun tartibiga aylanadi. Uzoq vaqt davomida keksalik o'zining tabiiyligi, kundalik hayoti tufayli sotsiologik tahlilning mumkin bo'lgan obyekti sifatida tan olinmadi va insonning muqarrar, istalmagan belgisi sifatida qaraldi.***

mexanizmlariga ko'rsatiladigan ta'sir natijasi, shuningdek, keksalik kasalliklarining patogenetik asoslari – bu organizmning yoshga bog'liq o'zgarishlar tufayli o'zgaruvchan tashqi muhit sharoitlariga tezda moslasha olmasligidir”<sup>17</sup>.

Gerontologlarning fikricha, keksalik odamni kasalliklar girdobiga yetaklaydi, u yerda endi ko'pchilik kishilar keksalikdan emas, balki kasalliklardan, ya'ni unga ajratilgan vaqtdan oldin vafot etishadi.

I.I.Mechnikov o'zining “Optimizm etyudlari” kitobida: “Keksaligimiz shunday kasallikki, uni boshqa har qanday kasallik singari davolash kerak”<sup>18</sup>, deb yozgan edi, bu bilan u keksalikni o'sha davrda rivojlanadigan kasalliklar sifatida tushungan.

V.V.Frolkis fikricha<sup>19</sup>, “qarish – bu organizmning moslashish qobiliyatini cheklash, o'lim ehtimolini oshirish, umr ko'rish davomiyligini qisqartirish, yoshga bog'liq patologiyaning rivojlanishiga hissa qo'shadigan muqarrar, tabiiy ravishda rivojlanayotgan halokatli jarayon”.

**Yakuniy qism.** Shunday qilib, keksalik, gerontologik guruh vakillarining turmush tarzi va darajasi, avlodlararo o'zaro munosabatlar sotsiologiyaning yangi muhim kun tartibiga aylanadi. Uzoq vaqt davomida keksalik o'zining tabiiyligi, kundalik hayoti tufayli sotsiologik tahlilning mumkin bo'lgan obyekti sifatida tan olinmadi va insonning muqarrar, istalmagan belgisi sifatida qaraldi. Endilikda qarish muammosi ijtimoiy siyosat asoslarini tashkil etib, makrotuzilmaviy darajada ijtimoiy jarayonlarning o'zgarish yo'nalishlarining ko'rsatkichiga aylanib borayotgani ayon bo'lmoqda. Mavjud holat gerontologik munosabatlarga ta'sir qiluvchi yangi chaqiriqlarni keltirib chiqardi, qarish va keksalikning mumkin bo'lgan modellari doirasi kengaydi, umuman hayotning “jadvali”, ayniqsa, hayot yo'lining gerontologik bosqichiga moslashish yanada murakkab jarayonga aylandi. Zamonaviy sotsiogerontologiyada sodir bo'layotgan jarayonlar ontologizatsiya tendensiyasini, tadqiqotchilarning mavhum nazariy labirintlardan odam va uning ijtimoiy muhiti nazariyasiga o'tish istagini aniqlaydi, bu odamning ko'zlari bilan yosh rivojlanishining gerontologik bosqichining mazmuni haqida savolni keltirib chiqaradi, ijtimoiy ekzistensializm va subyektiv realizm metodologiyasi orqali sotsiologiya va sotsiogerontologiyaning mikro va makro darajalarini birlashtirishda davom etadi.

<sup>17</sup> Пристром М.С., Пристром С.Л., Семенов И.И. Старение физиологическое и преждевременное. Современный взгляд на проблему. Международные обзоры: клиническая практика и здоровье 5-6 2017. – С 44.

<sup>18</sup> Мечников И. Этюды оптимизма. – М.: Издательство Юрайт, 2013. – С 78.

<sup>19</sup> Фролькис В.В. // Биология старения. – Л., 1982. – С.5–23.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Cumming E., Henry W.E. *Growing old: The process of disengagement*. – N.Y. Basic books, 1961.
2. Guha Roy. *Demographic Trends in China and India*. *China report*. 30: 1 (1994).
3. Фролькис В.В. // *Биология старения*. – Ленинград, 1982. – С.5–23.
4. Lander McCarthy V., Bockweg A. *The role of transcendence in a holistic view of successful aging* // *J. of holistic nursing*. – Los Angeles (CA), 2013. – Vol. 31, N 2. pp. 84–92.
5. Kirti K. Kalinga, Renuka Kumar. *Sociology of ageing*. 2008. 218 p/
6. Мечников И. *Этюды оптимизма*. – М., : Издательство Юрайт, 2013. – С. 78.
7. *Personal adjustment in old age* / Cavan R.S., Burgess E.W., Havighurst R.J.,
8. Пристром М.С., Пристром С.Л., Семенов И.И. *Старение физиологическое и преждевременное. Современный взгляд на проблему* // *Международные обзоры: клиническая практика и здоровье* 5-6 2017. – С 44.
9. Rowe J.W., Kahn R.L. *Successful aging* // *The Gerontologist*. – Oxford, 1997. – Vol. 37, N 4. pp. 433–440;
10. Tornstam L. *Gero-transcendence: A meta-theoretical reformulation of the dis-engagement theory* // *Aging: Clinical and experimental research*. – Milano, 1989. – Vol. 1, N 1. pp. 55–63;
11. Tornstam L. *Gero-transcendence: A theoretical and empirical exploration* // *Aging and the religious dimension* / Ed. by L.E. Thomas, S.A. Eisenhan-dler. – Westport (CT): Greenwood publishing group, 1994. pp. 203–225.
12. [Vankayalapati Venkateswarlu](#). *Problems of Rural Aged: A Sociological Perspective*. Gyan Publishing House, 2008. 263 p-p 37.
13. <https://ru.wikipedia.org/wiki/> Пенсионный возраст по странам.
14. <https://lex.uz/acts/112314>. Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларнинг давлат пенсия таъминоти тўғрисидаги” Қонуни.